

“DONOLIK” KONSEPTINING TIL SATHLARIDA VOQELANISHI

Tojiboyeva Mohinur Sherali qizi

Farg‘ona davlat universiteti Ingliz tilini o‘qitish metodikasi kafedrası katta
o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

E-mail address: mtojiboyeva95@gmail.com

Telefon nomer: +998979494140

Annotatsiya: Ushbu maqolada donolik konseptining ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida leksik, morfologik sintaktik, frazeologik, tekstologik hamda paralingvistik sathlarda voqelanishi tahlil qilindi. Maqolada kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya tamoyillari asosida xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, badiiy matnlar va zamonaviy nutqiy birliklar misolida konseptlarning semantik, grammatik va stilistik xususiyatlari yoritildi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillari materiallari taqqoslab o‘rganilib, donolik konseptining universal va milliy-madaniy qirralari aniqlab berildi. Tadqiqot natijalari tilshunoslik, qiyosiy tahlil va madaniyatshunoslik yo‘nalishlarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy hamda amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: konsept, donolik, leksik, morfologik, sintaktik, frazeologik, tekstologik, paralingvistik vositalar, qiyosiy tahlil.

РЕАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «МУДРОСТЬ» НА ЯЗЫКОВЫХ УРОВНЯХ

Тожибоева Мохинур Шерали кизи

Старший преподаватель кафедры методики преподавания английского
языка Ферганского государственного университета, PhD

Адрес электронной почты: mtojiboyeva95@gmail.com

Номер телефона: +998979494140

Аннотация: В данной статье анализируется проявление концепта мудрости на материале английского и узбекского языков на лексическом, морфологическом, синтаксическом, фразеологическом, текстологическом и паралингвистическом уровнях. На основе принципов когнитивной

лингвистики и лингвокультурологии раскрываются семантические, грамматические и стилистические особенности концептов на примере народных пословиц, афоризмов, художественных текстов и современных речевых единиц. Кроме того, проведено сопоставительное изучение материалов английского и узбекского языков, что позволило выявить как универсальные, так и национально-культурные аспекты концепта мудрости. Результаты исследования служат теоретическим и практическим источником для дальнейших научных изысканий в области лингвистики, сопоставительного анализа и культурологии.

Ключевые слова: Концепт, мудрость, лексический, морфологический, синтаксический, фразеологический, текстологический, паралингвистические средства, сравнительный анализ.

REALIZATION OF THE CONCEPT "WISDOM" AT LANGUAGE LEVELS

Tojiboyeva Mohinur Sherali kizi

Senior Lecturer, Department of English Language Teaching Methodology,
Fergana State University, PhD

E-mail address: mtojiboyeva95@gmail.com

Phone number: +998979494140

Annotation: This article analyzes the manifestation of the concept of wisdom in English and Uzbek languages across lexical, morphological, syntactic, phraseological, textual, and paralinguistic levels. Based on the principles of cognitive linguistics and linguoculturology, the semantic, grammatical, and stylistic features of concepts are revealed through examples from folk proverbs, aphorisms, literary texts, and modern speech units. Furthermore, a comparative study of English and Uzbek materials identifies both universal and national-cultural aspects of the concept of wisdom. The research findings serve as a theoretical and practical resource for further studies in linguistics, comparative analysis, and cultural studies.

Key words: concept, wisdom, lexical, morphological, syntactic, phraseological, textological, paralinguistic means, comparative analysis

KIRISH.

Donolik (hikmat, zakovat) konsepi insoniyat tafakkurida qadimdan mavjud boʻlib, ular jamiyatning axloqiy-estetik ideallarini belgilovchi muhim tushunchalar sifatida shakllangan. Ushbu konseptlar xalq maqollari, hikmatli soʻzlar, badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, kundalik nutq jarayonida turli til sathlarida oʻz ifodasini topadi. Masalan, leksik sathda sinonimiya, antonimiya va metaforik maʼnolar orqali, morfologik sathda esa soʻz yasovchi va shakl yasovchi qoʻshimchalar orqali, sintaktik sathda esa iboralar va gap qurilishi orqali konseptlarning turli qirralari ochib beriladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda konseptual tilshunoslik inson tafakkuri va madaniyatining til orqali ifodalanish qonuniyatlarini oʻrganishga qaratilgan fundamental yoʻnalish sifatida shakllanmoqda. Donolik va nodonlik konseptlari esa nafaqat axloqiy-maʼnaviy qarashlarning, balki xalqning tarixiy tajribasi va madaniy merosining ham til sathlaridagi aks-sadosini namoyon qiladi. Shu bois ushbu maqolada mazkur konseptlarning leksik, morfologik va sintaktik sathlardagi voqelanishi tizimli ravishda tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tilshunoslikda konseptlarni oʻrganish masalasi XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan boshlab alohida ilmiy yoʻnalish sifatida shakllana boshladi. Kognitiv tilshunoslik vakillari N. D. Arutyunova, E. S. Kubryakova, Y. S. Stepanov va boshqalar konseptni “inson ongidagi madaniy-maʼnaviy tajribaning til vositalarida aks etgan birligi” sifatida talqin qiladilar [1, 45]. Ularning tadqiqotlarida konseptning semantik tuzilishi, asosiy va qoʻshimcha maʼnolari, shuningdek, madaniy konnotatsiyasi tahlil qilinadi [2, 63].

Oʻzbek tilshunosligida ham konseptual tahlil boʻyicha izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A. Nurmonov, N. Mahmudov, B. Yoʻldoshevlarning asarlarida konsept va semantik maydon tushunchalari oʻzbek til materiallari asosida tahlil qilingan [3,112]. Maqollar va hikmatli soʻzlarda donolik va nodonlikka doir

tushunchalarning ifodalanishi esa ko‘plab folklorshunos va adabiyotshunos olimlar H. Zarifov, M. Afzalov, Q. Yo‘ldoshevlarning tadqiqotlarida aks etgan [4, 27].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning nazariy tamoyillari tashkil etadi [1, 52]. Ushbu yondashuv inson tafakkuridagi konseptlarning til birliklarida ifodalanish jarayonini tahlil qilishga imkon beradi.

Metod sifatida quyidagilardan foydalanildi:

Deskriptiv metod – donolik va nodonlik konseptlarining leksik, morfologik va sintaktik vositalar orqali ifodalanishini tavsiflash uchun;

Komponent tahlil – konseptlarning semantik tarkibini, asosiy va qo‘shimcha semalarini aniqlash uchun;

Kontekstual tahlil – maqollar, hikmatli so‘zlar va badiiy matnlarda konseptlarning ma’no nozikliklarini tahlil qilish uchun;

Qiyosiy metod – o‘zbek tilidagi materiallar bilan rus va ingliz tillaridagi ayrim birliklarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash maqsadida [6, c. 134].

“*Donolik*” konsepti barcha til sohiblari konseptosferasida mavjud mental birlik bo‘lib, universal tabiatga ega, chunki u obyektiv borliqni in’ikos qilishda barcha bilimlarni verbal va noverbal vositalar orqali voqelantirilishini taqozo etadi. Shu boisdan u kommunikativ muloqot ehtiyoji nuqtayi nazaridan o‘ziga xos freym tuzilmasiga ega muhim konseptual hodisadir. “*Donolik*” konsepti ingliz va o‘zbek tillarida quyidagi verbal va noverbal (paralingvistik) vositalar orqali til sathlarida voqelanishi mumkin:

TAHLILLAR VA NATIJALAR

I. Morfologik vositalar (morfemalar). **ing.** wise – wis+ing, wis+ed, wis+er, wis+est, wise-ly, un-wise, un-wisely, wis+dom; **o‘z.** dono – dono+roq, dono+lik, dono+larcha, don+ishmand, donishmand+lik, donishmand+larcha, donishmand+ona.

II. Leksik vositalar (leksemalar) orqali ifodalanadi: 1) ot bilan: **ing.** knowledge, comprehension, intelligence, judgement, penetration, sagacity; **o‘z.**

aql, bilim, es, tajriba, oqillik, zakovat, zehn; 2) sifat bilan: **ing.** *brilliant, clever, insightful, astute, literate, smart, sharp, shrewd*; **o'z.** *didli, bilag'on, fahmli, idrokli, savodli, uquvli, ziyrak, xiradmand*; 3) fe'l bilan: **ing.** *understand, advise, guide, judge, enlighten, perceive, learn, ponder*; **o'z.** *aqllashmoq, anglamoq, fahmlamoq, kuzatmoq, pishmoq, sergaklanmoq, o'qimoq*; 4) ravish bilan: **ing.** *wisely, insightfully, thoughtfully, sagely, prudently, reflectively, rationally*; **o'z.** *donolarcha, donishmandona, oqilona, hushyorona, bilag'onlarcha*.

III. Sintaktik vositalar (sintaksemalar). 1) so'z birikmasi, qo'shma so'z bilan: **ing.** *accumulated wisdom, ancient wisdom, wise decision, sound advice, rational thinking, acquire wisdom, seek wisdom, profound understanding*; **o'z.** *biyron gapirmoq, gapga chechan, bama'ni javob, oqilona qaror, savodxonlar mamlakati, donolik qilmoq, hushyor tortmoq, sergak bo'lmoq*; 2) sentensemalar (sodda va qo'shma gaplar) bilan: **ing.** *Under a ragged coat lies wisdom* (proverb); *It is the riches of mind only that make a man rich and happy* (proverb); *Wisdom in the mind is better than money in the hand* (proverb); **o'z.** *Dono qarisa ham, donoligi qarimas* (Maqol); *Dono aytsa, el aytgani, Elning g'amin yeb aytgani* (Maqol); *O'n qatim o'yla, bir qatim so'yla* (Maqol); yetti o'ylab, bir kes.

IV. Frazologik vositalar. **ing.** *a wise old owl, have the wisdom of Solomon, words of wisdom, the pursuit of wisdom, pearls of wisdom*; **o'z.** *zuvalasi ortiq, ko'zi pishgan, aqli o'tkir, boshi/miyasi bilan ish qilmoq, aqli yetmoq*.

V. Tekstologik vositalar (tekstemalar). **ing.** *By three methods we may learn wisdom: first by reflection, which is noblest; second, by imitation, which is easiest; and third by experience, which is the the bitterest*; [6] *His words are wisdom to those legislators who contemplate no essential reform in the existing government; but for thinkers, and those who legislate for all time, he never once glances at the subject* [7] **o'z.** *O'z darajasiga yetolmaslik johillikdan o'zga narsa emas. O'z darajasidan oshmoqlik esa donolikning o'zginasidir* (Saida Jo'rayeva, "Haqiqat manzaralari");

VI. Paralingvistik vositalar. *Donolik tushunchasini ifodalashda paralingvistik vositalar so'zlarning o'zidan ham ko'proq ta'sir ko'rsatishi mumkin.*

Jumladan, mulohazakorlik va o‘ychanlikni ifoda qiluvchi sokin yuz ifodasi, ko‘z bilan ishora qilish yoki olisga qarash, qo‘lni yon tomonga ochish, ko‘rsatkich barmoq bilan ta’kidlash, qo‘lni iyakka yoki boshga tegizish.

Shunday qilib, maqolada donolik konseptining turli til sathlarida voqelanishi tizimli tahlil qilinib, ularning milliy-madaniy va semantik xususiyatlari ilmiy asoslangan holda ochib berildi. Olingan natijalar kelgusida konseptual tahlil, lingvokulturologiya va qiyosiy tilshunoslik yo‘nalishlaridagi tadqiqotlar uchun nazariy hamda amaliy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Donolik konsepti ingliz va o‘zbek tillarida xalqning axloqiy va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikkala tilda ham u bilim, tajriba va ehtiyotkorlik bilan bog‘lanadi. Leksik darajada o‘zbekcha *dono*, *donishmand* so‘zlari inglizcha *wise*, *sage* kabi birliklarga mos keladi. Morfologik jihatdan o‘zbek tilida -lik, -ona qo‘shimchalari orqali, ingliz tilida esa *wise* va *wisdom* shakllari orqali ifoda topadi. Sintaktik darajada maqollar va hikmatli so‘zlarda donolik maslahat beruvchi va ibratli mazmun yuklaydi. Natijada, konsept har ikki tilda umumiy semantik mazmunga ega bo‘lsa-da, milliy-

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнова Н. Д. *Лингвистическая семантика*. – Москва: Наука, 1988. – 284 с.
2. Кубрякова Е. С. *Язык и знание: На пути получения знаний о языке*. – Москва: Русские словари, 2004. – 317 с.
3. Степанов Ю. С. *Константы: Словарь русской культуры*. – Москва: Академический Проект, 2001. – 395 с.
4. Nurmonov A., Mahmudov N. *Tilshunoslikka kirish*. –Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 256 b.
5. Zarifov H. *O‘zbek xalq maqollari*. –Toshkent: Fan, 1981. – 198 b.
6. <https://www.brainyquote.com/topics/wisdom-quotes>
7. <https://sentence.yourdictionary.com/wisdom>

